



SOMONIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: I. B. Xudoynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada IX-X asrlarda Movarounnahrda Somoniylar hukmronlik qilgan davrda madaniy hayotning rivoji xususida so‘z boradi. Shuningdek, bu davrda ijod qilgan olimlar hayoti va faoliyati, ilm-fan, islom dinining keng rivoj topishi, xususan me’morchilik to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Somoniylar, Movarounnahr, shaharlar, Bag‘dod, Damashq, Bayt ul-hikma, forsiyti, arab tili, Islom dini, me’morchilik.

CULTURAL LIFE IN THE SOMONIAN STATE

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi

Tashkent state university of oriental studies

Faculty of East civilization and philosophy

Ilmiy rahbar: I. B. Xudoynazarov

Abstract: This article deals with the development of cultural life during the reign of the Somanites in Movarounnahr in the 9th-10th centuries. Also, the life and work of the scientists who created during this period, the wide development of science, Islam religion, especially architecture, were also discussed.



Key words: Samanids, Mowarounnahr, cities, Baghdad, Damascus, Bayt ul-hikma, Persian language, Arabic language, Islamic religion, architecture.

KIRISH:

Somoniylar davlati (875-999) — Movarounnahr va Xurosondagi o‘rta asr davlati. Somoniylar davlatining tashkil topishi Arab xalifaligining qulashi hamda Movarounnahr va Xurosonni bosib olgan Somoniylarning davlat tepasiga chiqishi bilan bog‘liq. Ravnaq topgan davrida Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Sharqiy Eronni o‘z ichiga olgan. Bu davlatda madaniy hayot ham gurkirab rivojlanib, o‘z davrining cho‘qqisiga erishgan.

ASOSIY QISM:

Somoniylar hukmronligi davrida IX—XI asr boshlaridan Movarounnahr va Xurosonda sodir bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham kuchli ta’sir etdi.

IX-X asrlarda ayniqsa Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaladi. Poytaxtda — amir saroyida turli sohalarga oid qo‘lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubona barpo etiladi. Somoniylarning aksariyati adabiyot, she’riyat, ilm-fan, san’at va me’morchilikka homiylik kiladilar.

Bu davrda Buxoroda ayniqsa she’riyat ravnaq topadi. Uning rivojiga fors klassik poeziyasining buyuk vakillari Abu Abdulloh Ja’far Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Abulhasan Balxiy va ko‘pgina boshqa shoirlar g‘oyatda katta hissa qo‘shadilar.

Rudakiy IX asr oxirida Panjikent yaqinidagi Panjrudak qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshlik chog‘idayoq u rud (chang) chalishni yaxshi o‘rgangan. She'r yozib, kuy bastalagan va hofizlik kilgan. Xalqo‘rtasidagi dong‘i tufayli u Nasr ibn Ahmad



(914-943) tomonidan sozanda va shoir sifatida Buxoroga chaqirtirilib olingan. Rudakiy «Kalila va Dimna», «Sind-badnoma», «Arois un-nafois» va «Davroni oftob» asarlarini yozgan. U she'riyatda ayniqsa qasida bitishning mohir ustasi bo‘lgan. Uning «Jo‘yi Muliyon», «Mayning onasi» va «Qarilik» kabi qasidalari xalq o‘rtasida g‘oyat shuhrat top-gan. Rudakiyning ulkan she'riy merosidan hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan ozgina qismi ham (2 ming misraga yaqin) shoirning zo‘r va yorqin iste'dodidan, poetik tilining ta'sirchanligidan, obrazlarining teranligidan dalolat beradi. Rudakiy o‘z she'rlarida ona- Vatanni, uning tabiatini va aholisini, insoniy his-tuyg‘ularini tarannum etadi. Shoir haqsizlik va adolatsizlikka dadil qarshi chiqadi, o‘scha vaqtarda hukm surgan tartibsizliklarni ayamay fosh etadi. Umr bo‘yi ta’qib etilgan, oxiri Buxorodan quvilgan Rudakiy 941-yilda ona qishlog‘ida vafot etadi¹.

Asli Xorazm va So‘g‘d tilida so‘zlashgan Farg‘ona, Samarqand va Buxoro somoniylar davrida til jihatidan forsiylasha boshladi. Samarqand va davlatning boshqa shaharlarida ishlab chiqarilgan sopol buyumlarga yozuvlar bitilgan arab tili somoniylar uchun katta ahamiyatga ega edi.

Somoniylar davlati aholisining ayrim guruhlari turkiyzabon edi. Xorazmlik etnograf olim Beruniy (973-1048) o‘z asarlarida Xorazmning turkiy aholisi qo‘llagan turkiy oylar va turkiy dorivor o‘tlarning nomlarini ko‘rsatadi. Beruniy o‘zining 1000-yillarda Xorazmda yozgan „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asarida yillarning turkiy nomlarini hayvoniy davrga ko‘ra bergen bo‘lib, ular Xorazmning turkiy aholisi ishlatgan: sichqon, ot, barlar, jerboa, lui, ilon, yunt, kuy, pichin, tagigu, Tunguz. Beruniyning „Hindiston“ asarida Toshkent vohasining turkiy nomi mustahkamlangan. Beruniyning yozishicha, Shosh shahri

¹ Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent. Sharq nashriyoti. 2001. 28-b.



nomi turkiy tildan kelib chiqqan bo‘lib, unda Tosh-kand, ya’ni tosh shahar deb ataladi.²

Bu davrda ayniqsa Bag‘dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda Sharqning o‘ziga xos Fanlar Akademiyasi «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil etilgan edi. «Bayt ul-hikma» da katta kutubxona hamda Bog‘dodda va Damashqsa astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalg etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon, fors va hind olimlarining ulkan merosini to‘plash, asrash va ularni arab tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullanadilar. Qariyb ikki asr mobaynida faoliyat korsatgan jahonga mashhur bu ilmiy dargohning ko‘p sonli olim-u fuzalolari orasida Masarjavayh, Muhammad Fazoriy, Fazl Navbaxt, Yoqub Kindiy va kogina boshqalar kabi bir nechta chet tillarni mukammal biladigan yetuk tarjimonlar faoliyat korsatganlar.

Bu davrda «Bayt ul-hikma»da Muso Xorazmiy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid Marvarudiy, Ahmad Fargoniy, Abdulloh at-Turk, Abu Xolid Soguniy, Qaffol Shoshiy kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o‘rta asrlar ilm-u fani, xususan, matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, kimyo va huquqshunoslik fanlarining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shadilar.

«Bayt ul-hikma» ning olimlaridan Xolid ibn Abdumalik al-Marvaziy 831-yilda Damashq yaqinidagi Ki-syon tog‘ida barpo etilgan rasadxonani boshqargan. U ham o‘z «Zij» ini tuzadi, yer meridianining uzunligini o‘lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Bag‘dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan matematik Ahmad ibn Adbulloh al-Marvaziy zamondosh olimlar ortasida Habash al-Hosib («Hisobchi habash») laqabi bilan mashhur edi. U ikkita «Zij» tuzadi. Uning ziyoridan orta asr

² Uvatov U. Donolardan saboqlar. – Toshkent. Abdulla Qodiri yashriyoti uyi. 1994. 21-b.



astronomlari keng foydalanganlar. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Habash al-Marvaziy handasa fani (geometriya)ga tangens, kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini keltirgan³.

Somoniylar davlati, xususan, Movarounnahrning ravnaqida Islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'yi oshib, poytaxt Buxoro Sharqda Islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome masjid, xonaqoh va namozgohlar bino qilindi. Shu davrda Buxoro shahrida O'rta Osiyodagi ilk ilmgoh — madrasa bunyod etiladi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi X asrda bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. Mamlakat ma'naviy hayotida „ustod“ deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom „shayx ul-islom“ nomi bilan yanada ulug'landi. Ustoddan keyin xatiblar turardi. Somoniylar masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning surf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratib bergenlar. Islom dini ravnaqi, shubhasiz, O'rta Osiyo aholisining mustaqil xalq bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda Islom ta'liloti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada ayniqsa Ismoil al-Buxoriy va uning zamondoshi va shogirdi Iso at-Termiziylarning hissasi nihoyatda buyuqdir. Ismoil al-Buxoriyning toliq ismi Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. U 810-yilda Buxoroda tug'ilgan, kuchli qobiliyat va xotiraga ega bo'lgan. Yoshligidanoq hadislarni o'rganishga kirishib, butun umrini hadis ilmiga bag'ishlagan. U hadis va ta'fsir olimi, tarixchi bo'lib yetishgan. Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa o'lkalarda yashab 600 mingdan ortiq hadis to'plagan. Ulardan eng ishonchlilarini saralab, 4 jildli «Al-jome as-sahih» («Sahihi Buxoriy») to'plamini tuzgan. Bu asar

³ Негматов Н. Государство Саманидов. – Душанб. Дониш. 1997. 167-6.



islom dunyosida Qur'ondan keyin ikkinchi manba sanaladi va islom dorilfununlarida asosiy darslik sifatida o'rganiladi.

Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadis va ularga berilgan ko'pdan-ko'p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga oid qoidalargina ifodalanmaydi, balki inson ma'naviy kamolotining ramzi hisoblangan mehr-muhabbat, hurmat-u izzat, muruvvat-u himmat, halollig-u mehnatsevarlik, saxiyliK-u ochiqko'ngillik hamda o'zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida bayon etilgan⁴. Uning atrofiga ko'plab shogird va izdoshlarini to'plagan. Uning eng mashhur shogirdlaridan biri Imom at-Termiziy edi.

Imom at-Termiziy 824-yilda Termiz shahridan 6 farsax (36 km) shimolda joylashgan Bug qishlogida dunyoga kelgan. Islom olamida mashhur bu muhaddis olimning to'liq ismi Abu Iso Muhammad bin Iso bin Savra bin Muso bin az-Zahhok az-Zarir at-Termiziy al-Bugiyidir. Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa shaharlarda mashhur muhaddislar asarlarini organib, islom dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qilib, Xuroson, Iroq, Hijozning mashhur muhaddis ulamolari bilan muloqotda bo'lgan.

Imom at-Termiziy hadislar to'plab, bir qancha asarlar yozgan, «Jome as-Sahih» yoki «Sunani Termiziy», «Kitob Ilal», «Kitob at-Tarix», «Kitob at-Shamoil an-Naboviya», «Kitob az-Zuhd» va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu davrda islomning nazariy asoslari mustahkamlandi. Bu borada ham Mavarounnahr olimlari ulkan hissa qo'shdilar. Bu davrning islom nazariyachilaridan biri Hakim Ter-miziy edi. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Husayn ibn Bashir al-Hakim at-Termiziydir. U 820 yidda Termiz shahrida dunyoga keladi. Umr bo'yli ilm bilan shug'ullanib, tasavvufni targ'ib qiladi. 80 dan ortiq muhim asarlar yozadi: «Kitob an-nahi» («Yo'riqnomा

⁴ Muhammadjonov A.R. O'zbekiston tarixi. – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2004. 138-b.



kitobi»), «Kitob al-Furuh» («Allohdan qo‘rquvchilar haqida kitob») shular jumlasidandir. Ayniqsa, uning «Ilal ash-Shariat va hatm ul-avliyotun» nomli kitobi islom nazariyachi-lari tomonidan eng ko‘p qayd etiladigan asardir. Asarlari va ularda berilgan teran fikr-mulohazalar, g‘oyalar bilan at-Termiziy oz zamonining ma’naviy hayotiga katta hissa qoshadi. Shu boisdan zamondoshlari uni «Al-hakim» degan nom bilan ulug‘lashgan⁵.

Bu davr O‘rta Osiyoda me’morchilik san’ati ham gurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Maqoki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqo‘ton minorasi, Ko‘hna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Talxojanbobo masjidi va boshqa yodgorliklar me’morchilik san’atining yorqin namunalari hisoblanadi.

XULOSA:

IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Somoniylar davlatida madaniyat yuqori darajada rivojlandi. Bu davrda nafaqat davlatning o‘zi balki, unda ijod qilgan olimlar-u, shoirlar ham butun Sharq olamida dong‘i ketgan edi. Movarounnahr shaharlari gullab yashnadi. Ilm-fan, din sohasi ham yuksalib, tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Bunga somoniylar sulolasining hissasi katta, zero, davlatdagи tinchlik osoyishtalik, yaxshi shart sharoit rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent. O‘qituvchi. 1994. 46-b.
2. Ma’naviyat yulduzлari. – Toshkent. Sharq nashriyoti. 2001. 28-b.
3. Muhammadjonov A.R. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2004. 138-b.
4. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – Toshkent. Abdulla Qodiriy nashriyot uyi. 1994. 21-b.
5. Негматов Н. Государство Саманидов. – Душанб. Дониш. 1997. 167-б.

⁵ Axmedova B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent. O‘qituvchi. 1994. 46-b.